



SUG'ORISHDA NO'XATNING NIGRITUM NAVINING O'SISH DINAMIKASIGA TA'SIRI

Kamolova Sevara Jamil qizi

Toshkent davlat agrar Universiteti Samarqand filiali talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7726873>

Annotatsiya. No'xat qimmatli dukkakli don o'simligi bo'lib xalq xo'jaligida turli maqsadlarda ishlatiladi. Asosan no'xatdan oziq ovqat mahsuloti sifatida foydalaniladi. Oziq -ovqat uchun no'xatning malla rang navlari, chorvachilik uchun esa konsentrat sifatida qoramtir donli navlari ekiladi. Sug'oriladigan erlarda no'xat yetishtirishda mineral, xususan azotli o'g'itlarni qo'llanilishi hosilning tarkibiy elementlari oshishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlari: no'xat ildizlari, no'xat nigritum navi, ekish me'yori, no'xat, vitamin, oqsil, o'sish fazasi, yer osti suvlari, tuproqning suv-fizik xossalari.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining muhim vazifalaridan biri, aholini oziq-ovqat maxsulotlarga bo'lgan talabini to'liq qondirishdan iboratdir. Bu maqsadga erishishda don va dukkakli-don ekinlarini yetishtirish, ularni xilma-xilligi, hosildorligini oshirish, sifatini yaxshilash jiddiy ahamiyat kasb etadi.

So'ngi yillarda takrorlanayotgan suv tanqisligi, oziq-ovqat maxsulotlariga jaxon bozorida narx navoning muttasil oshib borayotgani, axolining oziq-ovqat maxsulotlariga bo'lgan talabini yanada to'liqroq qondirish, ayniqsa oqsil va moy tanqisligini bartaraf qilish, respublikada oziq-ovqat ekinlari maxsulotlarini yetishtirish xajmlarini yanada oshirish xamda ularning turlarini ko'paytirish pirovard natijada qishloq axolisi daromadlari va turmush darajasini yuksaltirishni respublika hukumati qishloq xo'jaligiga aloqador bo'lgan olimlarni oldidagi dolzarb masala qilib qo'yimoqda.

Sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishga imkon yaratilmoqda. Boshqoli don ekinlari bilan atmosfera azotini tuganak bakteriyalar yordamida o'zlashtiradigan dukkakli don ekinlari bilan uyg'unlashgan holda ekish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

No'xat ekini qurg'oqchilikka chidamli dukkakli - don ekini bo'lganligi, sababli, uni lalmi va shartli sug'oriladigan yerlarda ham ekib, undan yuqori hosil olish mumkin.

O'simliklarda shu jumladan no'xat o'simligida hosildorlikni oshirishda o'simliklardagi fiziologik-biokimyoviy jarayonlarni chuqur o'rganish talab etiladi. O'simliklarning o'sish va rivojlanishi ko'proq ularning fiziologik-biokimyoviy xususiyatlar bilan bog'liqdir. O'simliklarda hosildorlik yuqori



ITALY



ITALY

bo'lishida o'simlikdagi fotosintez jadalligi xam muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki organik modda sintezi fotosintez jarayonida amalga oshadi. Fotosintez jadalligining yuqori bo'lishi yoki pasayishi xloroplastning asosiy komponentlari bilan bog'liq bo'lib, bu komponentlar bevosita o'simlik fotosintetik salohiyatini belgilaydi. Xlorofill xloroplastning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi hamda uning tarkibidagi xlorofill "a" va "b" pigmentlari fotosintez jarayonida ishtirok etib, o'simlikning o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda no'xatning 11 navi yetishtiriladi. Shuningdek, navlar pishib etish jihatidan farq qiladi. Erta pishgan turlarni birinchi kurtaklar paydo bo'lganidan 1-2 oy o'tgach iste'mol qilish mumkin. No'xatning o'rta pishib etish davri 2-2,5 oy. Kech turlarni 2,5-3 oydan keyin yig'ib olish mumkin.

No'xat nigritum avlodiga mansub oqsilga boy bir yillik o'simlik hisoblanadi. No'xat o'simligining ozuqaviyligi yuqori bo'lib doni tarkibida o'rtacha 19-30% oqsil, 4-7% moy, 47-60% azotsiz ekstraktov moddalar, 2,4-12,8% kletchatka, 0,2-4,0% kul va shuningdek, V1 vitamini hamda mineral tuzlar mavjud.

Bu navda bir tonna urug' va tegishli barg - poya yetishtirish uchun 45-60 kg sof modda hisobida azot, 16-20 kg fosfor, 30 kg kaliy, 25-30 kg kalsiy, 8-13 kg magniy sarflanadi. Erkin azotni o'zlashtirish xususiyatini nazarda tutib gektariga 20-30 kg azot, 60-80 kg fosfor va 30-40 kg kaliy sof modda hisobida solish tavsiya qilinadi. Fosforli va kaliyli o'g'itlar yer haydashdan oldin solinadi, azotli o'g'it ekishdan oldin va o'suv davrida solinadi.

Sifati bo'yicha 1 sinfga javob beradigan urug' ekish (tozaligi 99%, unuvchanligi 95%) maqsadga muvofiqdir. Nigritum navi erta ko'klamda bahorgi don ekinlari bilan bir vaqtda ekiladi. Gektariga 0,8-1,4 mln. dona miqdorida urug' ekiladi. Yirik donli navlar gektariga 240-300 kg ekiladi, mayda donli navlar 150-200 kg miqdorida ekiladi. Bu miqdorlar suvli yerlarda yoppasiga qator-lab ekish uchun tavsiya qilingan. Lalmi yerlarda ko'k no'xat keng qatorlab ekiladi, qator orasi 45 sm, ekish me'yori 60 kg.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mustanova, Z., & Mustanov, S. (2023). NO 'XATNING UMID NAVINING SUG 'ORISHNI ILDIZ TIZIMIDAGI TUGANAK BAKTERIYALAR SHAKLLANISHIGA TA'SIRI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(5), 94-95.
2. Хамдамов, И. Х., Шукуруллаев, П. Ш., & Мустанов, С. Б. (1991). СуҒориладиган ерларда нухат етиштириш технологиясига оид амалий кулланма.





3. Ташпулатов, Й. Ш., & Шерназаров, Ш. Ш. (2019). Euglenophyta в среднем течение реки Зарафшан (Узбекистан). Биологический журнал, (3), 11-13.
4. Boboqandov, N. (2023). BOQILISH GRADIENTI TASIRIDA O'SIMLIKLAR YER USTKI BIOMASSASINING O'ZGARISHI (JANUBIY G'ARBIY QIZILQUM MISOLIDA). Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(5), 11-14.
5. Mahammadiyev, J., Yoqubov, M., & Eshonqulova, A. (2022). QISHLOQ XO'JALIGI PESTITSIDLARIDA ISHLATILADIGAN GERBITSID VA INSEKTITSIDLARNI SAQLASHDA KAPSULALASHNING AHAMIYATI. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(6), 277-279.
6. Мустанов, С. Б., & Умурзакова, У. Э. (2019). Деятельность клубеньковых бактерий на корнях нута в условиях Узбекистана. In ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ (pp. 26-29).
7. Erkhonovich, I. E., & Toshpulatov, Y. (2022). Influence of Soil Salt on Growth, Development and Seed Productivity of Artichoke Varieties. American Journal of Plant Sciences, 13(5), 557-563.
8. Tashpulatov, Y. S. (2020). The anatomical structure of Calamus L. in the conditions (Uzbekistan).
9. Mahammadiyev, J. N., Raxmonov, V. N., Amonov, B. S., Abduqahhorov, J. M., & Maxammadiyev, M. N. (2021, December). MICROCAPSULATION COATING MATERIALS AND ITS APPLICATION IN FOOD TECHNOLOGY. In Archive of Conferences (pp. 58-60).
10. Санаев, С. Т., & Файзимуродов, Ж. (2016). Технология возделывания сортов кукурузы как повторной посевной овощной культуры.
11. Boboqandov, N. (2023). EFEMER VA EFEMEROIDLARNING BIOMASSASINING BOQILISH TASIRI OSTIDA OZGARISHI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(5), 15-17.
12. Rustamov, M., Bobomirzayev, P., & Fayzimurodov, J. (2022). KUZGI YUMSHOQ BUGDOYNING "JASMINA" NAVI DON HOSILDORLIGIGA EKISH MEYORLARNING TA'SIRI. Academic research in educational sciences, (Conference), 258-263.
13. Mahammadiyev, J. N., & Nurmanova, I. M. (2023). MIKROKAPSULYATSIYADA FAZALARARO POLIMERLANISH USULLARI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(4), 180-182.





SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



14. Isomov, E. E., & Nomozova, Z. B. (2022). ARTISHOK NAVLARINING O‘SISH VA RIVOJLANISH FAZALARI. Academic research in educational sciences, (Conference), 244-248.

